

“VATAN” KONTSEPTINING O‘ZBEK TILIDA BADIY MATNLARDA VOQEALANISHI

Ismatullayeva Iroda Izatullayevna

Toshkent Davlat Transport Universiteti, Toshkent,

ismatullaeva.i.i.03@gmail.com

ANNOTATSIYA

“Vatan” kontseptining o‘zbek tilida badiiy matnlar yordamida voqealanishi o‘rganilgan. Maqolada Rasul Gamzatovning ijodiga mansub she‘r va badiiy matnlar tahlil qilingan. Muallif Vatan kontseptining yadrosini va pereferiya sinonimik qatorlarini matnlarda ko‘rsatib taxlil qilgan.

Kalit so‘zlar: kontsept, sinonimik birliklar, vatan, matn, leksema, taxlil.

ANNOTATION

This article discusses the concept of “Vatan / Homeland” in the literary texts of Uzbek language. The article analyzes poems and literary texts related to the oeuvre of Rasul Gamzatov. The author analyzed the core of the concept “Vatan / Homeland” and the synonymous series of its periphery.

Key words: concept, synonymic units, motherland, text, lexeme, analysis.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается концепт “Родина” с помощью художественных текстов на узбекском языке. В статье проанализированы стихотворения и художественные тексты, относящиеся к творчеству Расула Гамзатова. Автор проанализировал ядро концепта “Родина” и синонимические ряды периферии.

Ключевые слова: концепт, синонимичные единицы, родина, текст, лексема, анализ.

KIRISH

O‘zbek xalqining boy, shonli tarixi davlatchilik an‘analari milliy va diniy qadriyatlaridan bizga ma‘lumki, Vatan-bu ulug‘ va muqaddas tushuncha hisoblanadi. Xadisi sharifda “Vatan-sajdagoh kabi muqaddasdir” deb yozib qo‘yilgan. Xadislarning musulmon kishi uchun Qur‘oni Karimdan keyin turadigan eng ishonchli manba ekanligini eslasak kifoya. Demak, bu mo‘min kishi uchun dasturul amal deganidir.

Xadislarning ishonchliligi shundaki, bu qoidalar Payg‘ambarimiz tomonidan buyurilgan sunnat amallar hisoblanadi. Tarixdan ma’lumki, Rasululloh sallolohu alayhi vasallamga ilk bor vahiy nozil bo‘lganda, Varaqa ibn Navfal Payg‘ambarimiz alayhissalomga, hali shunday vaqtlar kelib, u zotni qavmlari o‘z yurtlaridan haydab chiqarishlarini aytganlarida, Rosululloh sallolohu alayhi vasallam mahzun bo‘lib, *"ular meni haydab chiqarishadimi"*, deyishlari hamda Rosululloh sallolohu alayhi vasallam tug‘ilib o‘sgan vatanlaridan chiqib ketishga majbur bo‘lganlarida, *"Ey Makka sendan ko‘ra menga sevimliroq va suyuqliroq shahar yo‘q! Agar qavmim meni sendan chiqarmaganida, aslo sendan boshqa joyni makon tutmasdim"*, deyishlari har bir insonni tug‘ilib o‘sgan o‘z yurtini sevishiga yorqin misol bo‘la oladi. Ushbu o‘gitlarga amal qilish musulmon kishisining nafaqat madaniyatini anglatadi, balki xulqi va odobining ham go‘zal bo‘lishini ta‘minlaydi. Boshqa bir xadisga yuzlanadigan bo‘lsak, *"Vatanni sevmok iymondandir"* deyiladi. Iymonning inson uchun naqadar muhimligi o‘z - o‘zidan ayon narsa. Zero, iymonsiz bo‘lib kolishdan-da sharafsizrok holat yo‘qdir. Iymonsiz degan aybni ajdodlarimiz eng og‘ir xaqorat deb bilishgan. Demak, shu xadisning o‘ziyoq mo‘min kishi uchun juda katta mas‘uliyatni yuklab qo‘yadi. Ibn Abbosdan rivoyat qilingan hadisda Payg‘ambarimiz alayhissalom; *"Ikki ko‘z egasini do‘zax otashi kuydirmas: biri bu – Allohdan qo‘rqib yig‘lagan, ikkinchisi – Alloh yo‘lida poyloqchilik qilib uxlamagan kishini"*, – deb aytganlar (Termiziy rivoyati). Islom dini falsafasining go‘zalligi ham shunday misollarni keltirganmizda ko‘zga yaqqol tashlanadi.. Dinimiz bizga, har birimizga Vatanni sevishni muqaddas burch kilib belgilab bergan. Ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy va madaniy merosda ham bularning isbotini topishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

Mazkur maqolaning yozilishida turli hil adabiyotlardan, hamda internet saytlardan foydalanildi va tahlil qilindi. Qiyosiy metod, ma’noning komponent analiz metodi hamda kontseptual analiz metodlaridan foydalanildi.

NATIJARLAR

Mazkur maqolada "Vatan" kontseptining o‘zbek tilida badiiy matnlar yordamida voqealanishi o‘rganilgan va ushbu birlikni turli sheriy asarlarda tahlil qilindi.

MUHOKAMA

O‘zbek xalqining dunyo xalqlari ichida o‘z so‘ziga, mukammal tiliga ega bo‘lishida tamal toshini qo‘ygan bobomiz Alisher Navoiy *"Tilga ehtiyotsiz - elga e’tiborsiz"* deganlar. Talqin qilishga urinib ko‘radigan bo‘lsak, bobomiz o‘zbek tili haqida ya’ni Ona tilimiz haqida gapirmoqda. Har bir suveren davlatning muhim atributlaridan biri bu Davlat tili-ku. El kim, nima? El-bu xalq, davlat, Vatan. Navoiy bobomizning qaysi asarini olmaylik, Vatan, el tinchligi, omonligi, obodligi,

farovonligi haqida kuyinib ijod qilganliklarini ko'rishimiz mumkin. Shaxsan o'zlarining tashabbuslari bilan tolibi ilmlar uchun madrasalar qurish, elning uzog'ini yaqin, og'irini yengil bo'lishi uchun o'nlab ko'priklar qurish, suv chiqarish, bog'rog'lar yaratish ishlarida bosh-qosh bo'lganlar. Eng muhimi el tinchligi yo'lida, qon to'kmaslik, urushmaslik uchun, muqaddas zaminga, begunox insonlarga ozor yetkazmaslik uchun bor aqlu-idroki, iqtidori, kerak bo'lsa jonlarini ham qurbon qilmoqqa tayyor bo'lganlar. Yurtimizda tug'ilib o'sib ta'limu-tahsil olgan, taqdir taqozosi bilan umrining so'nggi yillarini Hindistonda o'tkazgan bobomiz Zahiriddin Bobur asarlarida ham Vatan ishqi, Vatan sog'inchi bosh mavzulardan biri bo'lgan. Tug'ilib voyaga yetgan yurti Andijonni tark etgach, "Anda jonim qoldi manim" deb nola qilganlari, tabiati va iqlimi yot bo'lgan hind zamini mevalaridan xuzur topmagan kezlari Farg'onaning shirin qovunlarini qumsagani "Boburnoma" da o'z aksini topgan. Shuningdek, Hindistonda o'z Vatanidek obidalar qurish maqsadida Samarqand va Buxorodan ustalarni olib ketgani o'zga zaminda ham o'z Vatanining siymosini ko'rish orqali, ayriliq azoblariga chora izlash bilan, Ona Vatanga bo'lgan cheksiz hurmati, sadoqatini aks ettirmoqchi bo'lgan. Ushbu holatni quyidagi g'zalda ko'rishimiz mumkin:

Ne yerda bo'lsang ey gul, andadur chun joni Boburing,

G'aribinga tarahhum aylagilkim, andijoniydur.

Shoirona yurtsevarlik, vatanfidoyilik Bobur shaxsida shunchalik tantana qiladiki, buyuk imperator Bobur endi Andijondan yiroqlikni, garchi bu martaba Hindiston taxti bo'lsa ham, qismatdagi yuz qarolig', deb hisoblaydi:

Tole' yo'qi jovimga balolig bo'ldi,

Har ish niki ayladim xatolig bo'ldi.

O'z yerni qo'lib, Hindistoni yuzlandim, Yo Rab,

Netayin, ne yuz qarolig bo'ldi?!

Yuqorida keltirilgan she'rni taxlil qilar ekanmiz, Bobur vatan so'zining o'rniga *gul va yer* so'zlarini ishlatib, ushbu nasrni yanayam bo'yoqdor, hamda o'zbek adabiyotining asl durdona asaridan biri ekanligiga amin bo'lamiz.

Mashhur Dog'istonlik yozuvchi va ko'plab she'rlar muallifi Rasul Gamzatovning ijodiga yuzlanar ekanmiz, Vatan uning hayoti va ijodining ajralmas qismi ekanini ko'rishimiz mumkin. R. Gamzatov asarlari to'plamining muqaddimasida tarjimon Piter Tempest I quyidagi so'zlarini keltiradi: «My father named me Rasul, which in Arabic means "representative" otam meni Rasul deb atagan, bu Arabcha" vakil " degan ma'noni anglatadi". Shoir o'zining barcha asarlarida o'z vatani, Dog'iston, avar vatandoshlari, ifodalaydi. Rasul Gamzatovning badiiy dunyosida "Vatan" tushunchasi alohida o'rin egallaydi.

Shoirning uy, ona, ona avar tili haqidagi bolalik xotiralari Vatan bilan bog'liq. Dog'iston tabiati fonida R. Gamzatov qahramonlari – ovul aholisi, dono oqsoqollar, jasur jigitlar, chiroyli qizlar hayotida muhim voqealar ro'y beradi. Avarlarning hayoti shoirni hayot va o'lim, do'stlik va xiyonat haqidagi falsafiy mulohazalarga olib keladi.

Biz R. Gamzatovning "Tanlangan asarlar" to'plamidan badiiy matnlarni ko'rib chiqdik va ulardagi "Vatan" kontseptni namoyish etish xususiyatlarini taxlil qildik.

R. Gamzatovning "Tanlangan asarlar" to'plamidagi "Vatan" kontseptining asosiy representi "Vatan" leksemasidir. Asosiy leksemadan foydalanishning statistik tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu leksik-semantik maydonga kiruvchi boshqa leksemalarga nisbatan kam, balki ikki holda ishlatilgan. Biroq, bu leksema dominant hisoblanib, kuchli nominativ ma'noga ega, yuqori hissiy jihatdan boshdan kechiriladi, keng assotsiativ qatorga egadir.

Leksemalardan foydalanish chastotasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shoir uchun Vatan Dog'iston tog'lari bilan bog'liq. Tog'lar shoir uchun Vatan ramzidir. "Tog'lar" leksemasi 18 marta uchraydi. "Tog'lar" leksemasi *cho'qqilar, qoyalar, daralar, jarliklar, balandliklar, toshlar* tog' so'zining kontekstual sinonimlari bilan ifodalanadi.

Ushbu *tog'* leksemaning kognitiv sinonimlari landshaftning bir qismi bo'lgan *tog'* yonbag'irlardir (*tog' yonbag'irlari, bulutli cho'qqilardan qoya jarlik tomon siljiydi*), *tog'lar* Vatan sifatida (*tog' cho'qqilari bilan himoyalangan*), jonli mavjudot sifatida (*jim, sukut ichra va qattiqo'l*), tug'ilgan joy (*men tog'larda tug'ilganman*), *tog'lar* odamlar sifatida (*tog'larning aholisi, tog'yigiti, tog'lik, bizning tog'larimizda*), *tog'lar* madaniy va axloqiy turmush tarzi sifatida (*tog' urf-odatlarini, tog'liklarning nafratlanishi*), *tog'lar* abadiylik ramz sifatida (*yuz asrlik sukunatdagi tog'lar*) – *tog'larning* ramziy qiyofasini axloqiy, axloqiy va madaniy qadriyat sifatida yaratadi. "Tog'lar" leksemasi "Vatan" kontseptning ikkinchi asosiy representi hisoblanadi.

R. Gamzatovning she'rlarida "Vatan" kontseptining asosiy qatlami joy nomlari va etnonimlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, "Dog'iston" leksemasi 4 marta, "dog'istonlik" va "dog'istonliklar" bir martta uchraydi.

Dog'iston — mening muhabbatim, mening kelajagim, mening tavbam, mening ibodatim! Dog'iston — hayotimning mazmuni, barcha she'rlarimning bosh mavzusi.

Aslida Dog'iston hamma dog'istonliklar uchun bitta. Lekin, o'ylab ko'rsam, har birining o'z Dog'istoni bor ekan. Mening ham o'z Dog'istonim bor. Bu mening ko'zimdagi, mening xayolimdagi, mening yuragimdagi Dog'iston. Men Dog'istonda nimaiki ko'rgan bo'lsam, nimaiki kechirgan bo'lsam, men bilan yashayotgan, mengacha yashagan odamlar nimaiki kechirgan bo'lsa barchasidan, qo'shiqlardan va daryolardan, qoyalardan va maqollardan, lochinlardan va taqolardan, tog'

so'qmoqlaridan va hatto aks-sadolardan barchasi va barchasidan mening tasavvurimdagi Dog'iston, mening Dog'istonim yaralgan.

She'rni rus va o'zbek tilida o'qiganimizda shoir o'zi hurmat qiladigan tirik mavjudot sifatida murojaat qiladigan Dog'istonni his qilishimiz mumkin: bu sintaktik (Dog'istonga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish funksiyasida) va semantik jihatdan (ibodat qilish, sevish, sharaf, shon-sharaf kabi leksik birliklar bilan birgalikda) ifodalanadi. Ingliz tilidagi tarjimasida bu holat kuzatilmaydi.

Kichik Vatanining haqiqiy vatanparvari sifatida R. Gamzatov o'z ona yurtini, ona qishlog'ini, o'z oulini kuylaydi. "Tanlangan she'rlar" to'plamida "Ona yurt" leksemasi 3 marta, "tug'ilgan yurtim" 1 marta ishlatilgan. "Yer" leksemasi *sevmoq, ibodat qilmoq, bo'lmoq* fe'llari bilan aks ettirilgan, buning natijasida ijobiy ma'no yaratiladi, ona yurt nafaqat sevgi ob'ekti, balki sajda qilish, ilohiylashtirish ob'ekti hisoblangan. Vatanga muxabbatni shoir quyidagi iboralar bilan ifodalagan: fe'l shakllari bilan birgalikda *yodga olsin, qalbmida ko'raman ko'ying tanimni, yodga olsin*, sifatlar bilan *masix, hur, olmosh* bilan – *o'sha*, qiyosiy konstruksiyada – *yer ona kabi*. Bunday leksik qator yordamida shoir yerning jonli qiyofasi ya'ni, omon qolgan, ammo sabr-toqat bilan o'zgarishlarni kutayotgan ona obrazi orqali aks ettirgan.

Ona tili shoir uchun Vatan obrazini bilan chambarchas bog'liqdir: "til" leksemasi 6 marta, "so'z"(nutq ma'nosida) 1 marta ishlatiladi, *avar, aziz, suyuk, muqaddas, hur, buyuk* so'zlari bilan belgilanadi. I. Sandomirskayaning fikricha, "Ona tili hech narsa bilan ifoda qilinmaydi, faqat o'z Vatanimizni ko'rsatib, o'zimizni namoyon qiladi". Shoir uchun esa Ona tili *jonga masix*, uning yo'q bo'lib ketishi xalqning yo'q bo'lib ketishini anglatadi *Erta ona tilim agar yo'qolsa, men bugun o'lishga bo'lurman rizo*, ushbu juftlikdan ko'rishimiz mumkinki, R.Gamzatov uchun avar tili o'lsa hayot ham to'xtaydi, bu esa o'z o'zidan bu insonni qanchalik yurtsevar va vatanparvar ekanini isbotlaydi va aynan ona tili orqali o'z halqini, elini, diyorini kuylaydi.

R. Gamzatovning asarlarini tahlil qilarkanmiz, "Vatan" kontseptini quyidagi joy ma'nolar orqali ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin 1) Vatanni- uy, qush uyasi, 2) Vatanni kichik, ixcham, mahalliyashtirilgan narsa sifatida aniq ajratish mumkin, 3) Vatan mintaqa, mamlakat sifatida 4) Vatan kichik birliklardan tashkil topgan yaxlit bir narsa sifatida. Binobarin, R. Gamzatov ijodida "Vatan" tushunchasi quyidagi leksemalar bilan ifodalanadi: *ota uy, ovul, yer, vodiy, tog'lar, gulshan, tikanzor Dog'iston, Sovet Ittifoqi*.

"Vatan" kontsepti vaqt, ya'ni tarix bilan ham bog'liq bo'lib, uni "o'tmish izini o'zida saqlaydigan madaniy artefakt" sifatida tahlil qilish mumkin. Shoir o'z mamlakatining boy tarixiga, uning ko'p asrlik urf-odatlar va madaniyatiga qoyil qoladi.

YON DAFTARDAN. *Kalkuttada buyuk Robindranat Tagorning uyida ajoyib bir qushning suratini ko'rdim. Bunaqa qush dunyoda yo'q, bo'lgan ham emas. U Tagorning xayolida paydo bo'lgan, uning fikr dunyosida yashagan. Agar Robindranat oddiy qushlarni ko'rmaganda bu g'aroyib qushini chizolmagan bo'lardi.*

Mening ham ajoyib bir qushim bor. Bu mening Dog'istonim. Shuning uchun kitobimning nomi aniqroq bo'lsin deb, uni "DOG'ISTONIM" deya atamoqchiman. U meniki bo'lgani uchun emas, u haqdagi mening tasavvurim boshqalarnikidan farqli bo'lgani uchun shunday demoqchiman. Shunday qilib, masala hal bo'ldi. Muqovaga "Dog'istonim" deb yoziladi.

Dog'iston — mening muhabbatim, mening kelajagim, mening tavbam, mening ibodatim! Dog'iston — hayotimning mazmuni, barcha she'rlarimning bosh mavzusi. Hamzat Sadasa oddiy mehnatkash edi, qalbida avar xalqining sha'ni va qadriyatlarini yashardi. U shu fazilatlarini pok saqlashni sharaf deb bildi.

XULOSA

R. Gamzatovning asarlarini tahlil qilib ushu xulosaga keldik: 1) shoirning lirikasidagi "Vatan" kontsepti joy-vaqt tushunchalari bilan bo'g'liq hamda muallif tomonidan jonlantiriladi. 2) "Vatan" kontseptining yadroviiy representi "tog'lar" leksemasidir. Yaqin pereferiyani "qush", "ota uyi", "ota so'qmog'i", "daryolar", "darcha": Dog'iston toponimi va Avar etnonim leksemasi ifodalaydi. Vatan kontseptining uzoq perefiriyasini "til, so'z, kirdi menga jon, Jonimga masix, jonim fido, o'lishga bo'lurman rizo, va, kuyladi, jon fido, yodga olsin". 3) "Vatan" kontsepti "aziz", "do'stlik", "erkinlik", "buyuk", "hur", "suyuk", "muqaddas", "tirik", "kelajagim", "tavbam", "ibodatim" leksemalari bilan ifodalangan ijobiy konnotativ ma'noga ega bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashurova D.U. Zamonaviy tilshunoslik va xorijiy tillar o'qitishning dolzarb masalalari. Ilmiy-amaliy anjuman masalalari. Toshkent, 2010.
2. Ismatullaeva, Iroda Izatullaevna (2022). CONCEPT AS THE BASIC TERM OF THE COGNITIVE LINGUISTICS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), 533-538. educational sciences, 3 (10), 621-628
3. Iroda Izatullaevna Ismatullaeva, Liliya Yurevna Filimonova, & Achilov Oybek Rustamovich (2022). SOCIOLINGUISTICS AND ITS DEVELOPMENT AS AN INDEPENDENT SCIENCE. Academic research in educational sciences, 3 (10), 621-628

4. Fauconnier G., Sweetser E. Cognitive Links and Domains: Basic aspects of Mental Theory// Spaces, Worlds and Grammar. Chicago and London: University of Chicago Press, 1996. P. 1-28.
5. Слышкин, Г. Г. Лингвокультурные концепты и метаконцепты : дис.... д-ра филол. наук / Г.Г. Слышкин. — Волгоград, 2004
6. Тер-Минасова С.Г. Язык в межкультурной коммуникации. Язык и люди выбрать книгу [www/abroad.ru/english/termin/9/htm/](http://www.abroad.ru/english/termin/9/htm/)
7. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. М.:Слово, 2000.- 264с.
8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик-Жиззах:Сангзор,2006.-926.;
9. Ismatullayeva, I. I. (2020). SOME WAYS OF TEACHING VOCABULARY THROUGH INTERACTION AT THE ENGLISH LESSON. *Theoretical & Applied Science*, (1), 563-566.

VEBSAYTLAR

1. http://ferlibrary.uz/f/rasul_hamzatov_mening_dogistonim.pdf
2. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/8-sentabr-rasul-hamzatov-tavalludining-90-yilligi.html>